

Buxoro viloyatida 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4334,6 mlrd so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati 114,1 foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar - dekabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi, jamiga nisbatan foizda



yirik korxonalar



kichik korxonalar va mikrofirmalar



norasmiy sektor


Korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari hajmi

Yirik korxonalar - 578,8 mlrd so'm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - 2425,0 mlrd so'm

Norasmiy sektor - 1330,8 mlrd so'm

Hududlar kesimida qurilish ishlarining o'sish sur'ati, foizda




Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4334,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 114,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 578,8 mlrd. so'mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2425,0 mlrd. so'mni hamda norasmiy sektor bo'yicha 1330,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Mos ravishda yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 91,9 % ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 132,7 % ni va norasmiy sektor bo'yicha o'sish sur'ati 99,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,1 foizga kamaygan, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 7,9 foizga oshgan, norasmiy sektor ulushi 4,8 foizga kamaygan.


**2019 yil yanvar-dekabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning
turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi**
jamiga nisbatan foizda



Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo'yicha taqsimoti


2019 yil yanvar-dekabr

(jamiga nisbatan foizda)



2018 yil yanvar-dekabr

(jamiga nisbatan foizda)



Qurilish ishlarning umumiy hajmidan 59,1 foizi yoki 2560,5 mlrd. so'm - yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o'tgan yilning mos davrida 59,7 foiz yoki 2138,0 mlrd. so'm), 40,9 foizi yoki 1774,1 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davrida 40,3 foizi yoki 1443,2 mlrd. so'm) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ijtimoiy soha ob'ektlarini (maktablar, kollejlarda, sport hamda sog'liqni saqlash ob'ektlari va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo'ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining hajmi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bino va inshootlarni qurilishiga 2882,4 mlrd. so'm, qurilish ishlarining umumiy hajmga ulushi 66,5 foizni, fuqarolik ob'ektlarini qurilishiga 780,4 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 18,0 foizni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 671,8 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 15,5 foizni tashkil qildi.

mlrd. so'mda


| | Amaldagi narxlarda | Umumiy hajmga nisbatan foizda | shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha: | | |
|------------------------------|--------------------|-------------------------------|---|----------------------------------|------------------------------|
| | | | Bino va inshootlarni qurilishi | Fuqarolik ob'ektlarini qurilishi | Ixtisoslashtirilgan qurilish |
| Viloyat bo'yicha jami | 4334,6 | 100,0 | 2882,4 | 780,4 | 671,8 |
| Davlat mulki | 254,3 | 5,9 | 1,8 | 226,9 | 25,6 |
| Nodavlat mulki | 4080,3 | 94,1 | 2880,6 | 553,5 | 646,2 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 foiz punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 foiz punktga oshdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 foiz punktga ko'paydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining umumiy hajmiga nisbatan ulushi, foizda



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari hajmi

Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalarini tomonidan 4080,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 114,7 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 94,1 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 foiz punktga ko'paygan.

Davlat mulkchilik shakli tomonidan 254,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan, oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati 105,2 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 5,9 foizni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 foiz punktga kamaygan.


| | 2019 yil yanvar-dekabr, mlrd, soʻm | Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati, foizda | Umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda |
|--|---|---|--|
| Jami mulkchilik shakli boʻyicha | 4334,6 | 114,1 | 100,0 |
| Davlat mulki | 254,3 | 105,2 | 5,9 |
| Nodavlat mulki | 4080,3 | 114,7 | 94,1 |

2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori oʻrinni Buxoro shahri egalladi. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1017,4 mlrd. soʻm, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 114,4 foizni tashkil qildi. Keyingi oʻrinni Gʻijduvon tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 396,5 mlrd. soʻmni, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 134,4 foizni tashkil qildi. Buxoro tumanida esa 396,3 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 133,8 foizni tashkil qildi.

| | 2019 yil yanvar-dekabr, mlrd, so‘m | 2018 yil yanvar-dekabr, mlrd, so‘m | O‘shish sur‘ati, foizda |
|------------------|--|--|----------------------------|
| Jami | 4334,6 | 3581,2 | 114,1 |
| Buxoro sh. | 1017,4 | 837,6 | 114,4 |
| Kogon sh. | 121,9 | 116,5 | 100,2 |
| Olot | 286,9 | 247,0 | 109,6 |
| Buxoro | 396,3 | 279,3 | 133,8 |
| Vobkent | 139,1 | 125,6 | 103,0 |
| G‘ijduvon | 396,5 | 278,8 | 134,4 |
| Kogon | 351,9 | 312,1 | 106,3 |
| Qorako‘l | 218,0 | 161,8 | 127,2 |
| Qorovulbozor | 312,7 | 292,5 | 100,5 |
| Peshko‘ | 201,6 | 182,6 | 104,1 |
| Romitan | 354,2 | 292,6 | 114,1 |
| Jondor | 234,8 | 170,4 | 129,9 |
| Shofirkon | 303,3 | 284,4 | 100,4 |

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlarining ulushi, foizda



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmida 23,6 foiz ulush bilan Buxoro shahri yetakchilik qilmoqda. Keyingi pog'onani 9,1 foiz ulush bilan G'ijduvon va Buxoro tumanlari egalladi. To'rtinchi o'rinni 8,2 foiz ulush bilan Romitan tumani egalladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

O. Jabborov

Aloqa telefoni:

223-81-99, 0(371)230-83-10